

**MTT TAYYORLOV GURUHI TARBIYALANUVCHILARINI MAKTABGA TAYYORLASHDA OTA-ONA
VA MTT HAMKORLIGI**

Hayitmuminova Durdona

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim fakulteti talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqola MTT lari tayyorlov guruhi bolalarini maktabga tayyorlashda MTT va oila hamkorligida olib boriladigan ishlar haqidadir. O'zbek oilasining o'ziga xosligi sharqona odob-axloq, rasm-rusum, urf-odat, milliy qadriyat hamda an'analar, ta'lim-tarbiya, ma'naviy yetuklikka intilish kabilarning barhayotligidir.

Kalit so'zlar: ma'naviy, axloqiy, o'yin, uzluksiz.

The annotation:

Article is about the role of kindergarten and family interaction in the comprehensive development of preschool children, and the practical solution to this problem is described in detail.

Key words: psychological, social, correction.

Аннотация:

в данной статье рассказывается о роли взаимодействия детского сада, школы и семьи во всестороннем развитии дошкольников и подробно описывается пратическое решение этой проблемы

Ключевые слова : социально, психологический, коррекция

O'zbek oilasida bolaning ta'lim-tarbiya va bilim olishiga asosiy zamin yaratuvchi maskan oiladir. Farzandlarimiz, avvalambor, oilada, ota-onadan ibrat olgan holda shakllanadi. Ota-ona bolaga boshidan ta'lim-tarbiya, nutq madaniyati, odamiylik xislatlarini qunt bilan singdirib borsa, kelajakda u barkamol, sog'lom, mustaqil fikrlovchi, eng asosiysi, odobli shaxs bo'lib yetishadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasiga binoan "Ota-onalar oz' farzandlari voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majbur"ligi haqida bayon etilgan.

Bola tarbiyasi murakkab jarayon. Tarbiyaning asosiy o'chog'I oila. Tarbiya faqat ota-onaning shaxsiy ishigina bo'lib qolmay, MTT va keng jamoatchilikni ham burchidir. Chunki tarbiya ijtimoiy hodisadir. Inson hayotda bilim olishga intilish, Vatanni sevish, ardoqlash, kattalarni hurmat qilish hamda muomala madaniyatini ota-onadan o'rganadi. Yosh avlodga ma'naviy, axloqiy, madaniy tarbiya berishning usul va vositalari xilma-xil bo'lib, bular ichida bola nutqi va muomalasi alohida o'rin tutadi. Farzand – ota-onaning baxti va boyligi. O'z navbatida u ota-onasini astoydil hurmat qilishi oila ko'rki sanaladi. Ota-onaning shaxsiy namunasi bolani tarbiyalashda eng muhim tamoyillardan biridir.

Ko'p yillik ilmiy izlanish va tadqiqotlardan olingan xulosalarga tayanib yondashadigan bo'lsak, inson umrini 70 foiz bilimini 7 yoshgacha ya'nikim maktabgacha ta'lim Yoshida oladi. Yosh avlodni yuksak g'oyalar ruhida tarbiyalash, ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirish uchun mamlakatimizda barcha

shart-sharoitlar mavjud. Takidlash joizki bolaligida yaxshi tarbiya ko'rgan bola kelajak faoliyatida turli muammolarga duch kelmaydi.

Bolalarni barkamol inson yuksak axloqli va odobli qilib tarbiyalash qadim zamonlardanoq barcha xalqlarning orzusi, istagi bo'lib kelgan. Oilada ota-ona bolasiga mehnatsevarlik, kattalarga hurmat, o'zidan kichiklarga shafqatli bo'lish va g'amxo'rlik qilish, yovuzlikka nafrat kabi ijobiy xislatlarni shakllantirishga harakat qilgan. Bugungi kunda ham farzandlarining ehtiyoj va intilishlari asosida yuksak darajada ta'limtarbiya berayotgan oilalar juda ko'plab topiladi. Bola har qadamda kattalardan ta'sirlanadi, eshitgan-ko'rganlariga taqlid qiladi. Ota-onalaridan muloqot madaniyatini o'rganadi va bu keyinchalik ularning hayot mazmunini begilaydi. Ota-onalar, avvalambor, bolalarining nutq madaniyatini nazorat qilib borishi, o'zaro muloqotda nutq madaniyati qoidalariga rioya qilishi, bola nutqini takomillashtirishni to'g'ri yo'lga qo'yadi. Har bir oila umumjamiyat talablari asosida shakllanadi. Jamiyat taraqqiyotining rivoji esa unda mavjud bo'lgan oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy qiyofasining shakllanish darajasiga bevosita bog'liq. Oilaviy munosabatlar bolalarning aqliy, ruhiy kamolotini ta'minlabgina qolmay, otaonalarda o'ziga xos faollikni ham yuzaga keltiradi. Oilada qaror topgan sog'lom ma'naviy-ruhiy muhit farzandlarning yetuk, barkamol bo'lib voyaga yetishishlarida beqiyos ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan oilada uyushtiriladigan suhbatlarning alohida ahamiyati bor. Odob-axloq mavzusidagi bunday muloqotlar farzandlarning til vositalarini mustaqil tarzda qo'llashiga erishish zarurligini ko'rsatadi. Bunday oilaviy suhbatlar Maktabgacha yoshdagi bolaning kundalik faoliyat hamda sayr-u sayohatlarida samarali natija berishi, shubhasiz. Hozirgi zamon talablariga muvofiq oilada bolalar ona tilini, adabiy talaffuz me'yorlariga binoan barcha tovush va so'zlarni aniq va tiniq talaffuz etib, so'z boyligini rivojlantirmog'i lozim.

Maktabgacha yoshdagi bola shaxsini shakllantirish, nutqini rivojlantirish borasida yo'l qo'yiladigan kamchiliklar ko'p uchrab turadi. Ota-onalarning bolalarga beparvoligi, so'zlashganda nutq madaniyatiga ahamiyat bermasligi bola nutqining buzilishiga olib kelmoqda. Kuzatuv va tahlillar shuni ko'rsatadiki, agar maktabgacha ta'lim tashkilotiga bormagan bola maktabga chiqsa, uning boshlang'ich sinfdagi o'qish faoliyati yetarli darajada samarali bo'lmaydi. Ya'ni, uning ta'limga moslashuvi sust kechadi, ijtimoiy munosabatlarga kirishishi, aqliy faoliyati sekin rivojlanadi. Bolada ko'pincha jismoniy, ruhiy jihatdan tayyor emaslik holati kuzatiladi. Bunday bolaning maktabda maxsus tayyorgarlikdan o'tgan tengdoshi bilan boshlang'ich ta'limni olishi uning ruhiyatida zo'riqish, uyalish, hadiksirash, o'ziga nisbatan ishonchsizlik kabi bir qator salbiy xislatlarini namoyon etadi va bu o'z navbatida uning ta'lim samarasiga ta'sir qiladi. Ta'lim olish motivatsiyasi, ilk o'quv ko'nikmalari shakllanmagan, psixik jarayonlari rivojlanmagan bola o'zlashtirishda tengdoshlaridan orqada qoladi, o'qishga nisbatan qiziqishi so'nib, yakkalanib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga qabul qilishdan oldin ularning qay darajada tayyorligini aniqlash lozim. Ushbu vaziyat nafaqat bolaga, balki butun oilaga mas'uliyat yuklaydi. Yangi turmush tarzi va faoliyati bolaning jamiyatda yangi mavqeni egallashi, kattalar va tengdoshlari bilan yangi munosabatlar o'rnatishni yuzaga keltiradi.

Juda ko'p hollarda ota-onalar farzandining maktabga chiqishini "bolani maktabga borish vaqti keldi" yoki "yana biron yil o'ynab olsin", deb o'zlaricha belgilashadi. Qoidaga ko'ra, ota-ona bolasini maktabga berishda o'z tajribasiga asoslangan holda ish ko'radi. Masalani maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi yoki o'qituvchi, ba'zan esa uydagi qarindoshlari, bilimdon qo'shnilari bilan muhokama qiladi. Ular bolani maktabga tayyorlashda uning bo'yi, og'irligi, o'qish va yozishga uquvini asosiy o'lchov deb o'ylashadi. Bunda bolaning psixologik tayyorgarligi esa hisobga olinmaydi. Aynan psixologik

tayyorlik bola o'quv faoliyatining ichki xarakteristikasi sifatida o'quv motivi va bilishga qiziqishini shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak bolalarni maktabga tayyorlashda oila va maktabgacha ta'lim tashkilotining hamkorlikda ishlashi yaxshi samara beradi. O'qituvchi bolalarni maktab binosi bilan tanishtirishi, maktabgacha ta'lim muassasasiga kelishi, savoljavoblar olib borishi, o'z navbatida tarbiyachi ham bolalar bilan sinfxonasidagi partalarda o'tirib, turli mashqlar o'tkazishi maqsadga muvofiqdir. Bularning barchasi bolalarni maktab haqidagi tasavvurlarini boyitib, o'qishga ishtiyoqini yanada oshiradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'yiladigan Davlat talablari. T., 2018 yil
2. "Takomillashgan Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. T., 2022 yil
3. O. Musurmonova va boshqalar. Ma'naviy barkamol shaxsni shakllantirish – jamiyat taraqqiyotining asosi. T.: "Fan va texnologiya", 2012, 188 b.
4. G. Sultonova Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning samarali yo'llari./Uzluksiz ta'lim, 2012, № 3, 50 – 52 b.
5. D. Xoliqov Oila mustahkamligi – jamiyat muhofazasida./Xalq ta'limi, 2012, № 2, 47 – 49 b
6. Shomarufov, A., Khudaybergenov, U., Abbosov, S., Khudayberdiev, K., Kasimov, S., & Abdukarimov, O. (2023). POSSIBILITIES OF PREDICTION OF THE EFFICIENCY OF VARICOCELECTOMY IN THE TREATMENT OF MALE INFERTILITY.
7. Khudaybergenov, U. A., Abbosov, S. A., & Ollayarov, A. A. (2024). EARLY DIAGNOSIS AND PREVENTION OF UROLITHIASIS IN THE ARAL SEA REGIONS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(2), 115-119.
8. Ataullaevich, A. F., Mekhammadkabirhanovich, B. M., Khalilovich, M. D., Ataullaevich, K. U., & Samukdjanovich, K. S. (2018). Assessment of the specific characteristics of urethral stricture according to records of Medical Republican institution of Uzbekistan. *European science review*, (9-10-2), 207-211.
9. Olimjonovich, M. B. (2022). THE RELEVANCE OF THE DEVELOPMENT OF TECHNOLOGY FOR LOCAL WASTEWATER TREATMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Harvard Educational and Scientific Review*, 2(3).
10. Усманов, И. А., Машрапов, Б. О., & Махмудова, Д. И. (2019). Проблемы охраны водных объектов от загрязнения бытовыми стоками в узбекистане. *Территория науки*, (3), 26-32.
11. Джалилова, Г. А., Максудова, Н. А., Машрапов, Б. О., & Искандарова, Ш. Т. (2019). ОХРАНА ПРИРОДНОЙ СРЕДЫ УЗБЕКИСТАНА ОТ ЗАГРЯЗНЕНИЯ ХОЗЯЙСТВЕННО-БЫТОВЫМИ СТОКАМИ. In *Здоровый образ жизни и здоровьесберегающее мировоззрение как приоритет национальной политики* (pp. 371-374).
12. Усманов, И. А., Махмудова, Д. И., & Машрапов, Б. О. (2019). Охрана окружающей среды от загрязнения бытовыми стоками в Узбекистане. In *СОВРЕМЕННОЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ПРИРОДНОЙ СРЕДЫ И НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЦИОНАЛЬНОГО ПРИРОДОПОЛЬЗОВАНИЯ* (pp. 15-21).
13. Махмудова, Д. Э., Усманов, И. А., & Машрапов, Б. О. (2020). Экологическая безопасность земель в районах расположения ТПК в Узбекистане.

-
14. Усманов, И. А., Ходжаева, Г. А., Мусаева, А. К., Махмудова, Д. И., & Машрапов, Б. О. (2020). Оценка качества воды Туполангского водохранилища с целью использования для водоснабжения. *Экология и водное хозяйство*, (1 (4)), 14-26.
 15. Асадова, Г. А. (2021). Актуальные проблемы бесплодия у женщин. In *Recent Scientific Investigation* (pp. 15-19).
 16. Асадова, Г. А. (2021). Обоснование комплекса мер по преодолению бесплодия у женщин с использованием методов вспомогательных репродуктивных технологий. *Интернаука*, (24-1), 44-45.